



AGRESSIV XATTI-HARAKATLARNING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 39-maktab Amaliyotchi psixolog
Tojiyev Muxriddin*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan agressiv xatti-harakatlarning sabablari va ularni bartaraf etish usullari yoritilgan. Agressivlik – bu bolaning ijtimoiy muhitga, o‘z tengdoshlariga yoki kattalarga nisbatan namoyon qiladigan salbiy, ko‘pincha zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlaridir. Maktab muhitida bu holatlar o‘quvchilarning psixologik holatiga, o‘zlashtirish darajasiga va jamoadagi mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada agressivlikning shaxsiy, oilaviy, maktabga oid va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Bolaning hissiy holatini tushunish, zo‘ravonlikka moyillikni erta aniqlash va uni bartaraf etish psixologik xizmatning asosiy vazifalaridan biridir. Maktab psixologi, o‘qituvchi va ota-onaning o‘zaro hamkorligi orqali bolada ijobiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini, emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish mumkin. Maqola davomida mavjud adabiyotlar, amaliy tadqiqotlar asosida agressivlikni kamaytirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maktab psixologlari uchun samarali metod va korreksion yondashuvlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: agressivlik, maktab psixologiyasi, xatti-harakatlar, zo‘ravonlik, bolalar psixologiyasi, konflikt, psixokorrekteysiya, emotsiunal nazorat, ijtimoiy muhit.

CAUSES OF AGGRESSIVE BEHAVIOR AND METHODS OF ELIMINATING THEM

Annotation: The article discusses the aggressive behavior of school-age children, the means of their elimination and the methods of their elimination. Aggressiveness is manifested in the social environment, in relation to peers or



adults, often causing harm. In a school environment, this situation can affect the psychological state of students, their level of mastery and their position in the team. The article analyzes the personal, personal, school-based and social life of aggression. It increases the emotional state of the child, early correction and development of aggression is one of the actions of the service. Through the cooperation of a school psychologist, teacher and parents, it is possible to provide support, manage emotions and develop social adaptation in a child. The article reviews the existing literature on the basis of practical support for aggressiveness., effective methods and corrections are created for school psychologists.

Keywords: aggression, school psychology, physical safety, violence, child psychology, conflict, psychocorrection, emotional control, social environment.

ПРИЧИНЫ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается агрессивное поведение детей школьного возраста, средства его устранения и методы его устранения. Агрессивность проявляется в социальной среде, по отношению к сверстникам или взрослым, часто причиняя вред. В школьной среде эта ситуация может влиять на психологическое состояние учащихся, уровень их владения и положение в коллективе. В статье анализируется личностная, личностная, школьная и общественная жизнь агрессии. Она повышает эмоциональное состояние ребенка, ранняя коррекция и развитие агрессии является одним из действий службы. Благодаря сотрудничеству школьного психолога, учителя и родителей возможно оказывать поддержку, управлять эмоциями и развивать социальную адаптацию у ребенка. В статье проводится обзор существующей литературы по основам практической поддержки агрессивности., создаются эффективные методы и методы коррекции для школьных психологов.



Ключевые слова: агрессия, школьная психология, физическая безопасность, насилие, детская психология, конфликт, психокоррекция, эмоциональный контроль, социальная среда.

Kirish

Bugungi tez sur'atlar bilan o‘zgarayotgan jamiyatda o‘quvchilarning psixologik holati va ularning xatti-harakatlari doimiy ravishda mutaxassislar diqqat markazida turadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda kuzatilayotgan agressivlik holatlari nafaqat individual rivojlanishga, balki o‘quv jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Agressiv xatti-harakatlar bolalarning darsga bo‘lgan munosabatini susaytiradi, jamoaga moslashishida to‘silalar paydo qiladi va do‘stona munosabatlarni shakllantirishni qiyinlashtiradi.

Agressivlik — bu bolaning ichki emotsional muvozanatining buzilishi natijasida vujudga keladigan salbiy xatti-harakat shaklidir. Bu holat bolaning o‘z tengdoshlariga yoki o‘qituvchilarga nisbatan jismoniy, og‘zaki yoki psixologik tajovuz tarzida namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha bu holatlar oiladagi zo‘ravon muhit, e’tiborsizlik, televizor va internetdagi zo‘ravonlik sahnalarining ta’siri, mактабда yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar natijasida yuzaga chiqadi. Bolalarning o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashdagi cheklovleri, konfliktli vaziyatlarda mos ravishda munosabat bildirishni bilmasligi ham agressivlikning ortishiga olib keladi. Maktab psixologining vazifasi faqat muammoni aniqlash bilan cheklanmay, balki uni tizimli tahlil qilish, sabablarini chuqur o‘rganish va har bir bola uchun individual psixokorreksion yondashuvlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

Psixologik adabiyotlarda agressivlik turli yondashuvlar asosida talqin qilinadi. B. Bandura o‘zining “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”da agressiv xatti-harakatlar o‘rganilgan va taqlid qilingan xatti-harakatlar natijasi ekanligini ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, bola ko‘pincha kattalarning yoki ommaviy axborot vositalarining zo‘ravonlikka asoslangan xatti-harakatlarini kuzatadi va ularni



takrorlaydi. S. Freyd esa agressivlikni inson tabiatining ajralmas qismi deb hisoblab, uni ichki konfliktlarning ifodasi sifatida izohlaydi.

Zamonaviy adabiyotlarda esa agressivlik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi, degan qarashlar keng tarqalgan. A. Adler va E. Eriksonlar bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni o‘z-o‘zini ifoda etishdagi to‘silalar, past o‘z-o‘zini baholash va o‘zini jamiyatda muhim deb his qilmaslik bilan bog‘laydi. Ularning fikricha, bola agressivlik orqali o‘z mavjudligini "ko‘rsatishga" urinadi.

O‘zbek psixologik adabiyotlarida ham bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. Jumladan, O. To‘xtasinov va M. Abdullaeva maktab yoshidagi bolalarning emotsiyal muvozanatini boshqarish, konfliktli vaziyatlarni hal qilish va agressivlikni kamaytirishda maktab psixologining roli katta ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, psixologik treninglar, interfaol o‘yinlar va oilaviy maslahatlar agressivlik darajasini sezilarli kamaytiradi.

Tadqiqotlar qismi

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida Toshkent shahridagi 3 ta umumta’lim mакtabida 5–9-sinf o‘quvchilari orasida kuzatuv va suhbat asosida tadqiqot o‘tkazildi. 60 nafar o‘quvchi, 12 nafar o‘qituvchi va 10 nafar ota-onalar suhbat va psixologik so‘rovnomalarda ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, agressivlik ko‘pincha ijtimoiy izolyatsiya, oilaviy befarqlik yoki haddan ortiq nazorat, tengdoshlar orasidagi rad etilish va o‘qituvchi bilan konfliktlar natijasida shakllanadi.

Agressiv xatti-harakatlar jismoniy (itish, urish), og‘zaki (haqorat, tahdid) va emotsiyal (mensimaslik, befarqlik) shakllarda ifodalanadi. Tadqiqot davomida psixologik mashg‘ulotlar – jumladan, emotsiyalarni anglash, stressni boshqarish, ijobiy fikrlash, konfliktni tinch hal qilishga doir treninglar tashkil etildi. 4 haftalik treninglar natijasida 73% o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini boshqarishda oldingiga nisbatan yaxshiroq natija ko‘rsatdi.



Ota-onalar bilan suhbatlar asosida ularning farzandlaridagi agressivlikka qarshi kurashishda ishtirok darajasi baholandi. Faol ishtirok etgan oilalarda o‘quvchilarda agressivlik darajasi ancha past bo‘lishi kuzatildi. Bu esa maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlikning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqotlar va adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalarda agressiv xatti-harakatlar ko‘p omilli muammo bo‘lib, uni bartaraf etishda faqat mакtab emas, balki oilaning, jamiyatning va psixologik xizmatlarning hamkorligi zarur. Agressivlik nafaqat bola shaxsiyatiga, balki uning o‘qishdagi yutuqlari va jamiyatdagi o‘rniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, agressivlikni erta aniqlash, unga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash va individual yondashuv asosida ish olib borish mакtab psixologining asosiy vazifasidir. Treninglar, psixologik suhbatlar, konfliktni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, o‘zini ifodalashga imkon beruvchi muhit yaratish orqali o‘quvchilarda agressivlik darajasini kamaytirish mumkin. Ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar esa bu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Har bir bola ijtimoiy shaxs sifatida rivojlanish huquqiga ega va bu yo‘lda unga ko‘maklashish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Mazkur maqola mакtab psixologlari, pedagoglar va ota-onalar uchun agressivlikka qarshi kurashishda zaruriy ilmiy-nazariy asoslar va amaliy ko‘rsatmalarni taqdim etadi. Shuningdek, kelajakda bu sohada yanada kengroq tadqiqotlar olib borishga zamin yaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Бандура А. Агрессия: социальное научение и моделирование поведения. — М.: Прогресс, 1979. — 390 с.
2. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. — М.: Наука, 1990. — 512 с.



3. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. — СПб.: Союз, 1997. — 288 с.
4. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. — М.: Академический проект, 2006. — 352 с.
5. To‘xtasinov O., Abdullayeva M. Psixologik xizmat: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2021. — 220 b.
6. Абрамова Г. С. Практическая психология образования. — М.: Академия, 2001. — 320 с.